

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“MARKAZIY OSIYODA LEKSIKOLOGIYA VA LEKSIKOGRAFIYA: AN’ANALAR VA HOZIRGI ZAMON ILMIY MAKTABLARI” MAVZUSIDA RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI AXBOROT XATI

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Eron-afg‘on filologiyasi kafedrasida 2023 yilning 6 may kuni “Markaziy Osiyoda leksikologiya va leksikografiya: an’analari va hozirgi zamon ilmiy maktablari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumanini o‘tkazishni rejalashtirmoqda.

Ilm-fan taraqqiyoti jadal sur‘atda o‘sayotgan bir davrda sharq mamlakatlarida o‘tgan 20-25 yil davomida katta ilmiy yangiliklar qo‘lga kiritilgani ma’lum. Tashkil etilayotgan ushbu ilmiy anjuman o‘zbek sharqshunosligining mustaqillik davrida erishgan muvaffaqiyatlari va bu sohadagi kelajak rejalarini jahon miqyosiga chiqishida va munosib o‘rin egallashida alohida ahamiyat kasb etadi.

Anjumanga quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha materiallar qabul qilinadi:

- sharq tillari funktsional qatlamlari;
- sharq tillaridagi neologizmlar;
- sharq davlatlari til siyosati;
- sharq tillaridagi leksikaning rivojlanish yo‘llari;
- O‘rta asrlar sharq lug‘atchiligi;
- Markaziy Osiyodagi lug‘atchilik;
- XX asr boshlarida Erondagi lug‘atchilik;
- izohli lug‘atlarning tuzilish xususiyatlari;
- lug‘atlarni talqin qilish usullari;
- lug‘atlardagi grammatik (morfologik, sintaktik) tadqiqotlar;
- hozirgi zamon lug‘atchiligi: yutuqlar va muammolar;
- lug‘atchilikda kompyuterdan foydalanish;
- muallif xos lug‘atlarini tuzish muammolari.

Maqola matni tahrir qilingan holda A-4 o‘lchovida, yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1.5 sm joy qoldirib rasmiylashtiriladi. Maqolaning sarlavhasidan keyin bir qator tashlab, keyingi qatordan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi yoziladi. Yangi qatordan esa maqola muallifi ishlaydigan tashkilot nomi, lavozimi va muallifning elektron manzili ko‘rsatiladi. So‘ngra 1 interval qoldirib, yangi qatordan 1,5 intervalli qatorlarda maqola matni 5-6 betgacha hajmda yoziladi. Matning elektron nusxasi MS Word dasturida Times New Roman shriftida, 14 kegel kattaligida bo‘lishi lozim. Maqolaning har bir beti 150 000 so‘mdan. Har bir maqolaga elektron DOI raqam beriladi.

Anjumanda qatnashish uchun maqola va elektron ko‘rinishini 2023 yilning 25 apreliga qadar Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Eron-afg‘on filologiyasi kafedrasiga yuborish so‘raladi. Kechiktirilgan va talablar bo‘yicha tayyorlanmagan maqolalar qabul qilinmaydi.

Manzilimiz:

100060. Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 20-uy,
ToshDShU Eron-afg‘on filologiyasi
kafedrasida

Murojaat uchun:

Telefon: (+99894) 6859743

E-mail: uktamovahilolaxon@gmail.com

ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ШАРҚШУНОСЛИК УНИВЕРСИТЕТИ
«МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ЛЕКСИКОЛОГИЯ ВА ЛЕКСИКОГРАФИЯ:
АНЪАНАЛАР ВА ҲОЗИРГИ ЗАМОН ИЛМИЙ МАКТАБЛАРИ» МАВЗУИДА
РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ
АХБОРОТ ХАТИ

Тошкент давлат шарқшунослик университети Эрон-афғон филологияси кафедраси **2023 йилнинг 6 май куни «Марказий Осиёда лексикология ва лексикография: анъаналар ва ҳозирги замон илмий мактаблари»** мавзуида республика илмий-амалий анжуманини ўтказишни режалаштирмоқда.

Илм-фан тараққиёти жадал суръатда ўсаётган бир даврда шарқ мамлакатларида ўтган 20-25 йил давомида катта илмий янгиликлар қўлга киритилгани маълум. Ташкил этилаётган ушбу илмий анжуман ўзбек шарқшунослигининг мустақиллик даврида эришган муваффақиятлари ва бу соҳадаги келажак режаларини жаҳон миқёсига чиқишида ва муносиб ўрин эгаллашида алоҳида аҳамият касб этади.

Анжуманга қуйидаги йўналишлар бўйича материаллар қабул қилинади:

- шарқ тиллари функционал қатламлари;
- шарқ тилларидаги неологизмлар;
- шарқ давлатлари тил сиёсати;
- шарқ тилларидаги лексиканинг ривожланиш йўллари;
- Ўрта асрлар шарқ луғатчилиги;
- Марказий Осиёдаги луғатчилик;
- XX аср бошларида Эрондаги луғатчилик;
- изохли луғатларнинг тузилиш хусусиятлари;
- луғатларни талқин қилиш усуллари;
- луғатлардаги грамматик (морфологик, синтактик) тадқиқотлар;
- ҳозирги замон луғатчилиги: ютуқлар ва муаммолар;
- луғатчиликда компьютердан фойдаланиш;
- муаллиф хос луғатларини тузиш муаммолари.

Мақола матни таҳрир қилинган ҳолда А-4 ўлчовида, юқоридан ва пастдан 2 см, чапдан 3 см, ўнгдан 1.5 см жой қолдириб расмийлаштирилади. Мақоланинг сарлавҳасидан кейин бир қатор ташлаб, кейинги қатордан муаллифнинг фамилияси, исми ва отасининг исми ёзилади. Янги қатордан эса мақола муаллифи ишлайдиган ташкилот номи, лавозими ва муаллифнинг электрон манзили кўрсатилади. Сўнгга 1 интервал қолдириб, янги қатордан 1,5 интервалли қаторларда мақола матни 5-6 бетгача ҳажмда ёзилади. Матнинг электрон нусхаси MS Word дастурида Times New Roman шрифтида, 14 кегел катталигида бўлиши лозим. Мақоланинг ҳар бир бети 150 000 сўмдан. Ҳар бир мақолага электрон DOI рақам берилади.

Анжуманда қатнашиш учун мақола ва электрон кўринишини 2023 йилнинг 25 апрелига қадар Тошкент давлат шарқшунослик университети Эрон-афғон филологияси кафедрасига юбориш сўралади. Кечиктирилган ва талаблар бўйича тайёрланмаган мақолалар қабул қилинмайди.

Манзилимиз:

100060. Тошкент шаҳри,
Шаҳрисабз кўчаси, 20-уй,
ТошДШУ Эрон-афғон филологияси
кафедраси

Мурожаат учун:

Телефон: (+99894) 6859743
E-mail: uktamovahilolaxon@gmail.com